TADBIRKORLAR UCHUN NAVBATDAGI “ROADSHOW” JIZZAX VA FARG‘ONA VILOYATLARIDA O‘TKAZILDI

Tadbirlarda odatdagidek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi “2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to‘g‘risida”gi farmoni mazmun-mohiyati atroflicha tushuntirildi.

Davomi → 2-betda



Международное сотрудничество

В УЗБЕКИСТАНЕ БУДЕТ СОЗДАН ЦЕНТРАЛЬНО-АЗИАТСКИЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ЦЕНТР ЭКОЛОГИИ И ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ

Продолжение → 12 стр.

ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ГАЗЕТА / IQTISODIY GAZETA

BIZNES DAILY BIRJA

GAZETA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT AKTIVLARINI BOSHQARISH AGENTLIGI KO‘MAGI BILAN CHOP ETILADI

#42 (3236) 27.05.2025

WWW.BUSINESSDAILY.UZ

O‘zbekiston va Sloveniya Prezidentlari qo‘shma biznes forumida ishtirok etdi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Lyublyana shahriga tashrif doirasida Sloveniya Respublikasi Prezidenti Natasha Pirs Musar bilan birgalikda qo‘shma biznes forumida ishtirok etdi.

Tadbirda ikki mamlakatning 100 dan ortiq yetakchi sanoat va savdo korxonalari rahbarlari va vakillari qatnashdi.

Sloveniya delegatsiyasi “KRKA”, “Duol”, “Emo Frite”, “Panvita”, “Medex”, “Tajfun Planina”, “Altado”, “UVC Solutions”, “Riko” va boshqa ko‘plab kompaniyalardan iborat bo‘ldi.

Davlatimiz rahbari o‘z nutqida bugungi oliy darajadagi samarali muzokaralar O‘zbekiston-Sloveniya munosabatlarida, eng avvalo, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy sohalarda yangi sahifa ochganini ta’kidladi.

Jahon iqtisodiyotidagi hozirgi murakkab davrda o‘zaro savdoni ko‘paytirish, kooperatsiya ko‘lamini kengaytirish va milliy iqtisodiyotlarni diversifikatsiya qilish uchun mavjud imkoniyatlardan foydalanish muhim ekani qayd etildi.



O‘zaro tovar yetkazib berish nomenklaturasi va hajmini, shu jumladan to‘qimachilik va meva-sabzavot mahsulotlari, mineral o‘g‘itlar, mis, farmatsevtika mahsulotlari, texnologik uskunalar va yuqori qo‘shilgan qiymatli boshqa tovarlar hisobidan ko‘paytirish orqali yaqin yillarda o‘zaro savdo hajmini 500 million yevroga yetkazish vazifasi qo‘yildi.

Ikki mamlakat iqtisodiyoti bir-birini to‘ldirishi mumkin bo‘lgan tarmoqlarda sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish dasturini qabul qilish muhimligi qayd etildi.

O‘zbekiston Prezidenti iqtisodiy sheriklikni yanada rivojlantirishning muhim yo‘nalishlarini ko‘rsatib o‘tdi. Farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishni mahalliylashtirish, elektrotexnika jihozlari, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, meva-sabzavotlarni saqlash va qayta ishlash, "yashil" energetika obyektlarini qurish va modernizatsiya qilish shular jumlasidan.

Transport jihatidan o‘zaro bog‘liqlikni, shu jumladan Sloveniyaning "Koper" porti imkoniyatlaridan foydalanish va ikki mamlakat o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aviaqatnovlarni yo‘lga qo‘yish orqali rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi.

O‘zbekistonda Sloveniya fuqarolari uchun joriy etilgan vizasiz tartib ishbilarmonlik, gumanitar va sayyohlik almashinuvlarini rivojlantirishga xizmat qilishi ta’kidlandi.

O‘zbekiston yetakchisi uchrashuv ishtirokchilarining e’tiborini mamlakatimizda Yevropa kompaniyalari uchun tashkil etilayotgan maxsus sanoat parkiga qaratdi. U Sloveniya kompaniyalarini ushbu maxsus zonaning birinchi rezidentlari bo‘lishga taklif qildi.

Davlatimiz rahbari Sloveniya ishbilarmon doiralari O‘zbekiston bilan o‘zaro manfaatli sheriklikni rivojlantirishga qiziqish bildirib, aniq taklif va rejalarini ilgari surganlarini yuksak baholadi.

Yakunda Prezidentlar huzurida ikki tomonlama savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy bitimlarni almashish marosimi bo‘ldi.



Budjet jarayonida ochiqlikni ta’minlash bo‘yicha onlayn seminar

Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Rossiya Federatsiyasi Moliya vazirligi o‘rtasidagi ikki tomonlama hamkorlik dasturining O‘zbekiston Respublikasi budjet jarayoni va budjet ma’lumotlarining ochiqlik darajasini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish yo‘nalishi doirasida onlayn seminar tashkil etildi.

Seminarni dastur eksperti Sergey Sudakov boshqarib bordi. Unda 100 dan ortiq ishtirokchi qatnashdi.

Seminarning birinchi qismida dastur eksperti Antonina Kovalevskaya “O‘zbekiston Respublikasi budjet ma’lumotlarining ochiqligini oshirish bo‘yicha “yo‘l xarita”si mavzusida taqdimot o‘tkazdi. Taqdimotda Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan budjet ma’lumotlari ochiqligini baholash indeksini joriy etish yo‘lida amalga oshirilayotgan ishlanmalar namoyish etildi. Jumladan, ishlab chiqilayotgan modellarning mahalliy sharoitga moslashtirilishi va ularni amaliyotga tatbiq qilishda xodimlarning salohiyatini oshirishga alohida e’tibor qaratildi. Mazkur yo‘nalishda amalga oshiriladigan keyingi bosqichdagi ishlar bo‘yicha rejalar muhokama qilindi.

Tadbirning ikkinchi qismida ikki tomonlama dastur eksperti Yana Polyakova “Submilliy darajada budjet va budjet jarayonining ochiqlik darajasini oshirish bo‘yicha tavsiyalar: O‘zbekiston tajribasi” mavzusida ma’ruza qildi. U o‘z nutqida budjet siyosatining ustuvor maqsadi mamlakat iqtisodiy o‘sishini ta’minlash ekanligini ta’kidladi. Shu jihatdan budjet muvozanati va inflyatsiyaning past darajasi muhim omillar sifatida qayd etildi. Shuningdek, u budjet prognozini shakllantirishda qo‘llanilayotgan yondashuvlar, asosiy fiskal xatarlarni stress-testdan o‘tkazish hamda soliq imtiyozlari xarajatlarini boshqarish mexanizmlari haqida batafsil ma’lumot berdi.

Seminar yakunida 2025–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining Xalqaro Budjet ochiqligi tashabbusiga (International Budget Partnership — IBP) a’zo bo‘lishi masalasi yuzasidan ham fikr almashildi.

Jarayon

O‘zbekiston–Gruziya: hamkorlik uchun loyihalar taqdim qilindi

→ 3-betda



Международное сотрудничество

Россия поможет рассчитать водный баланс Узбекистана на 30-50 лет

→ 12 стр.



ОТДЕЛ РЕКЛАМЫ

REKLAMA VA E’LONLAR BO’LIMI

+998 (99) 353-55-54

telegram BIZNES DAILY BIRJA

Tadbirkorlar uchun navbatdagi “Roadshow”
Jizzax va Farg‘ona viloyatlarida o‘tkazildi



Tadbirlarda odatdagidek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi “2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to‘g‘risida”gi farmoni mazmun-mohiyati atroflicha tushuntirildi.

Taqdimotlarda Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktori o‘rinbosari Alisher Miraliyev, agentlikning Jizzax viloyati hududiy boshqarmasi boshlig‘i v.v.b. Farhod Haydarov, Farg‘ona viloyati hududiy boshqarmasi boshlig‘i Alisher Saliyev, Jizzax viloyati hokimining birinchi o‘rinbosari Zafar Azimov, Biznes-ombudsmanning Jizzax viloyatidagi vakili Sardor Usmonov, Farg‘ona viloyati hokimi o‘rinbosari Nuriddin Mamajonov so‘zga chiqib, tadbirkorlar uchun xususiylashtirish va davlat mulkini ijaraga berish yo‘nalishlarida bir qator imtiyozlar va qulayliklar yaratilganligini ta’kidlab o‘tishdi.



E’tirof etilganidek, masalan, davlat aktivini sotib olish to‘lovlari 1 oy davomida to‘langan taqdirda, xaridorga xarid summasidan Markaziy bankning asosiy stavkasi miqdorida chegirma qo‘llaniladi. Davlat ko‘chmas mulk obyektlari va davlat ulushlarini sotib olish uchun to‘lovlarning miqdoriga qarab 3 yilgacha bo‘lgan muddatda bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati berildi. Mehmonxona va turizm xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha davlat mulkini savdoga chiqarishda xarid to‘lovlari miqdoridan qat’i nazar ularni 5 yilgacha bo‘lib-bo‘lib to‘lash mumkin. Tibbiyot va ta’lim tashkilotini tashkil etish uchun auksion savdolarida sotilgan davlat ko‘chmas mulk obyektlarining sotib olish narxidan qat’i nazar barcha xaridorlar xarid to‘lovlarini 5 yil muddatda bo‘lib-bo‘lib to‘lash huquqiga ega. Ijaraga oluvchi tomonidan yillik ijara to‘lovlari 1 oy davomida to‘langan taqdirda, unga yillik ijara summasidan Markaziy bankning asosiy stavkasi miqdorida chegirma taqdim etiladi. “E-auksion” orqali ijaraga olinganiga kamida 5 yil bo‘lgan davlat mulki obyektini kapital ta’mirlash, modernizatsiya qilish, tevarak-atrofini obodonlashtirish bo‘yicha ishlar amalga oshirilgan va ijara to‘lovlari o‘z vaqtida to‘lab kelingan bo‘lsa, davlat mulki obyektining ijaraga olingan qismini baholangan qiymatda to‘g‘ridan-to‘g‘ri sotib olish huquqi mavjud. Maydoni 10 ming m^2 gacha bo‘lgan davlat mulki obyektlari yuqori texnologiyali mahsulot yaratadigan tadbirkorlik subyektlariga 5 yil muddatga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tekin foydalanishga beriladi. Shartnoma shartlari bajarilgan taqdirda, ushbu tadbirkorlik subyektiga baholangan qiymatda to‘g‘ridan to‘g‘ri sotiladi. Barcha turdagi yer uchastkalarining qiymati 15 ish kunida to‘liq to‘langan taqdirda, jami summaga nisbatan 20 foiz chegirma beriladi (boshlang‘ich narxi 50 foizdan ortiqqa pasaytirilgan holda realizatsiya qilingan yer uchastkalari bundan mustasno). Bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan sotilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalari bo‘yicha kamida 35 foiz miqdoridagi dastlabki to‘lovni biryo‘la amalga oshirgan xaridorlar mazkur yer uchastkalarini kredit ta’minoti sifatida garovga qo‘yish huquqini qo‘lga kiritadi. Auksion savdolariga tadbirkorlik uchun chiqarilgan yer uchastkalari (viloyat markazlari bundan mustasno) 3 oy davomida sotilmaganda boshlang‘ich qiymatining 30 foizigacha, 6 oy davomida sotilmaganda 10 foizigacha bosqichma-bosqich 10 foizdan pasaytirilishi, sotib olish to‘lovlarining 15 foizini 3 oy muddatda, qolgan qismini 10 yilgacha muddatda bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati yaratildi.



“Roadshow” davomida ishtirokchilar 2025-yilgi xususiylashtirish dasturiga muvofiq, Jizzax viloyatida ommaviy savdolarda sotilishi belgilangan jami 3 ta davlat va davlat ishtirokidagi xo‘jalik jamiyatlarining ulushlari, 86 ta ko‘chmas mulk obyekti hamda 363,9 gektar yer maydonlari haqidagi ma’lumotlar bilan ham tanishtirildi. Farg‘ona viloyatida esa ommaviy savdolarda sotilishi belgilangan jami 8 ta davlat va davlat ishtirokidagi xo‘jalik jamiyati ulushlari, 53 ta ko‘chmas mulk obyekti hamda 425,8 gektar yer maydonlari haqida ma’lumot berildi. Shuningdek, “E-auksion” elektron savdo platformasidan foydalanish, savdo platformasida shaxsiy kabinet ochish, onlayn elektron imzo olish va savdolarda qatnashish uchun ariza berish tartiblari atroflicha tushuntirildi.

Tadbir yakunida ishtirokchilar va OAV vakillari tomonidan





berilgan bir qator savollarga tegishli javoblar berib o‘tildi. Jumladan, Zomin tumanida bog‘dorchilik uchun 50 gektar qishloq xo‘jaligi yerini ijaraga olgan tadbirkor tomonidan ushbu yerni xususiylashtirib olish tartibi bo‘yicha savol berildi. Bu haqda ma’lumot taqdim etilib, 2021 yilda qabul qilingan “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq, faqat noqishloq yer uchastkalarini xususiylashtirish mumkinligi tushuntirildi. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalari “E-auksion” savdo platformasida elektron onlayn auksion savdolari orqali faqat ijaraga berilishi mumkinligi bildirildi. Paxtakor tumanidan tashrif buyurgan hokim yordamchisi tomonidan bir qator takliflar o‘rtaga tashlandi. Xususan, hududdagi mavjud maktablarning bir qismini yozgi ta’til vaqtida tadbirkorlarga ijaraga berib yozgi oromgohlar tashkil etish tashabbusi oldinga surildi. Mutasaddilar tomonidan mazkur taklif ijobiy qarshi olinib, Paxtakor tumanidagi maktablarning birini bu yil tajriba sifatida yozgi oromgoh tashkil etish uchun ijaraga onlayn-auksion savdolariga chiqarishga kelishib olindi. Zarbdor tumanidan kelgan tadbirkor davlat mulkini xususiylashtirishda to‘lov summasiga beriladigan chegirma yuzasidan savol berdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yil 21-apreldagi farmoni 6-ilovasiga asosan davlat aktivi xaridori sotib olish to‘lovlarini bir oy davomida to‘lagan taqdirda, unga xarid summasidan mazkur shartnoma tuzilgan sanada amalda bo‘lgan Markaziy bankning asosiy stavkasi miqdorida chegirma qo‘llanilishi tushuntirildi.

Quva tumanida xususiy bolalar bog‘chasini ochgan ayol tadbirkor tomonidan Quvasoy shahridagi kollejning bo‘sh yotoqxona binosida bog‘cha faoliyatini tashkil etish uchun auksion savdolariga chiqarish tartibi bo‘yicha savol berildi. Mazkur savol bo‘yicha Prezidentimizning 2023-yil 24-martdagi PQ-102-sonli qarori bilan jismoniy shaxslarga “Davlat mulki” axborot tizimi orqali maydoni 2 000 metr kvadratgacha bo‘lgan davlat ko‘chmas mulk obyektlarini xususiylashtirish yoki ijaraga berish uchun to‘g‘ridan to‘g‘ri onlayn auksion savdolariga chiqarish haqida ariza berish huquqi berilganligi aytib o‘tildi. Farg‘ona tumanidan tashrif buyurgan tadbirkor kichik sanoat zonalari hududidagi davlat mulki obyektlarini xususiylashtirish tartibi haqida so‘radi. Shu bois Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 17-iyuldagi 432-sonli qaroriga muvofiq, kichik sanoat zonalari hududida investitsiya va ijtimoiy majburiyatlarni to‘liq bajargan ishtirokchilarga berilgan davlat ko‘chmas mulk obyektlarini xususiylashtirish tartibi mavjudligi hamda kichik sanoat zonalari direksiyasi orqali Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga ariza yuborish kerakligi urg‘ulandi.



Zamira Tojiyeva.

O‘zbekiston–Gruziya: hamkorlik uchun loyihalar taqdim qilindi

Poytaxtimizda Gruziya Savdo-sanoat palatasi prezidenti Georgiy Pertaya boshchiligidagi delegatsiyaning O‘zbekistonga tashrifi doirasida O‘zbekiston–Gruziya biznes forumi va Ishbilarmonlar kengashi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Tadbirlarda vazirlik va idoralar, tarmoq birlashmalari rahbarlari, ikki mamlakatning 300 nafarga yaqin ishbilarmonlari ishtirok etishdi.

Savdo-sanoat palatasi raisi Davron Vahobov biznes forumning ochilish marosimida ta’kidlaganidek, 2024-yil yakuniga ko‘ra, O‘zbekiston-Gruziya o‘rtasidagi o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi 23 foizga o‘sib, 213 million AQSH dollarini tashkil etgan. O‘zbekistondan eksport 60,5 million dollar, Gruziyadan import 153,2 million dollar miqdorida amalga oshirilgan. Hozirgi kunda respublikamizda gruzin kapitali ishtirokida 60 ta korxona faoliyat yuritmoqda, shulardan 31 tasi qo‘shma, 29 tasi esa 100 foiz gruzin sarmoyasi asosida tuzilgan. Navbatdagi muloqotlar esa O‘zbekiston va Gruziya o‘rtasidagi ishbilarmonlik munosabatlarini yanada rivojlantirish, yangi qo‘shma loyihalarni amalga oshirish va o‘zaro savdo hajmini oshirishda muhim platforma vazifasini o‘taydi.

Forum doirasida mehmonlarga yurtimizda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar, sanoat sohasidagi keng imkoniyatlar haqida ma’lumot berildi. Mamlakatlarimiz o‘rtasida logistika, qishloq xo‘jaligi, tibbiyot, oziq-ovqat sanoati, to‘qimachilik, turizm, ulgurji savdo va boshqa yo‘nalishlarda o‘zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish uchun katta salohiyat mavjudligi alohida qayd etildi. Shuningdek, B2B va G2B formatlarida tashkillashtirilgan uchrashuvlarda ishtirokchilar qo‘shma korxonalar faoliyatini yo‘lga qo‘yish, o‘zaro manfaatli savdo shartnomalarini tuzishning amaliy jihatlarini batafsil muhokama qilishga muvaffaq bo‘lishdi.









Mazkur tadbirlardan so‘ng, Gruziya Savdo-sanoat palatasi prezidenti Georgiy Pertaya boshchiligidagi delegatsiya Toshkent shahrida joylashgan “TEXNOPARK” MChJ-ga tashrif buyurdi. Mehmonlar O‘zbekistondagi eng yirik sanoat klasterlaridan biri bo‘lgan ushbu texnoparkning faoliyati va imkoniyatlari bilan yaqindan tanishdilar. Delegatsiya a’zolari faoliyat yuritayotgan korxonalardagi ishlab chiqarish va eksport jarayonlarini, texnologik operatsiyalarning avtomatlashtirish darajasini ko‘zdan kechirishdi. Gruziyalik ishbilarmonlar mahalliy va xorijiy kompaniyalar o‘rtasidagi hamkorlik, mahalliylashtirish dasturlari, ishlab chiqarishda innovatsion yechimlarni joriy etish masalalariga qiziqish bildirdilar. “TEXNOPARK” vakillari ularga ishlab chiqarish quvvatlari, eksport yo‘nalishlari, xorijiy hamkorlar (SAMSUNG, FERROLI) bilan amalga oshirilayotgan qo‘shma loyihalar, ekotizim va rivojlanish uchun yaratilgan qulay sharoitlar haqida batafsil ma’lumot berdilar.

Toshkent viloyatiga tashrif buyurgan gruziyalik ishbilarmonlariga "Yangi Toshkent" — yangi ma’muriy va shaharsozlik markazi loyihasi taqdim etildi. Taqdimot doirasida yangi shahar konsepsiyasi, uning strategik ahamiyati, ekologik va innovatsion yechimlari hamda xalqaro standartlarga javob beradigan infratuzilmasi haqida taqdimot namoyish etildi. Gruziya tomon loyihaning shaharsozlik va arxitektura sohalaridagi zamonaviy yondashuvlarini yuqori baholab, bunday loyihalarning mintaqaviy rivojlanishdagi o‘rni va ahamiyatini ta’kidladi. Uchrashuv so‘ngida shaharsozlik sohasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, o‘zaro tajriba almashish masalalari muhokama qilindi.

Janubiy Koreya ekspertlari ishtirokida seminar-trening tashkil etildi

O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi va uning tizim tashkilotlari mutaxassislari uchun “Uzbekistan Textile Standart & Certification capacity building program” grant dasturi doirasida KATRI (Korea Apparel Testing & Research Institute) ekspertlari ishtirokida seminar-trening o‘tkazildi.

Seminarda to‘qimachilik sohasidagi standartlar, muvofiqlikni baholash, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, eksportni oshirishda qulay shart-sharoitlar yaratish hamda sifatli sinovlar va davlat nazoratini amalga oshirish bo‘yicha Koreya tajribasi yuzasidan tinglovchilar uchun muhim va zarur bo‘lgan ma’lumotlar berildi.





BIZNES DAILY BIRJA

- **Биржа савдолари натижалари**
- **Биржа бюллетенлари**
- **Котировкалар, листинглар**
- **Танлов ва тендерлар**
- **Қимматли қоғозлар бозори иштирокчиларининг муҳим фактлари**
- **Банкротлик**

#42 (3236) 27.05.2025
WWW.BUSINESSDAILY.UZ

Урганч туманлараро иқтисодий суди томонидан қабул қилинган ажримга асосан қуйидаги қарздор корхонага нисбатан тўловга қобилиятсизлик тўғрисида иш қўзғатилган ва тўловга қобилиятсизлик тўғрисида иш судда кўриб чиқилгунга қадар кузатув таомили қўлланилган. Муваққат бошқарувчи этиб суд бошқарувчиси Якубов Шоназар Артиқович тайинланган.

Т/р	Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида иш қўзғатилган корхоналар номи	Суднинг ажрими	
		санаси	рақами
1	“Akmalbek Ideal Road” МЧЖ	08.05.2025 йил	4–2201–2504/4556

“Akmalbek Ideal Road” МЧЖ (СТИР 305503611) бўйича кредиторларнинг биринчи йиғилиши 2025 йил 1 июль куни соат 10.00 да Хоразм вилояти солиқ бошқармаси биносида ўтказилади.

“Akmalbek Ideal Road” МЧЖ бўйича тўловга қобилиятсизлик тўғрисида иш 2025 йил 7 июль куни соат 11.30 да Урганч шаҳри, Аль-Хоразмий кўчаси, 107-уйда жойлашган Урганч туманлараро иқтисодий судининг биносида очиқ суд мажлисида кўриб чиқиш учун тайинланган.

Мурожаат учун манзил: Урганч тумани, Каттабоғ маҳалла, Каттабоғ кўчаси, 45-уй.

Телефон: +99897-510-28-00.

Беруний туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 28 апрелдаги 4-2302-2502/424-сонли ҳал қилув қарори билан **“Botir-Bobur-farm” МЧЖ** (СТИР 307622082) соддалаштирилган тартибда тўловга қобилиятсиз деб топилиб, тугатишга доир иш юритиш бошланган. Тугатиш бошқарувчиси этиб Юсупов Мансурбек Янгибоевич тайинланди.

Мазкур жамиятнинг тўртбурчак штампи ва думалоқ муҳри эълон чоп этилган кундан эътиборан 3 (уч) иш куни ичида тугатиш бошқарувчисига топширилмаган тақдирда, бекор қилинган ҳисобланади. Кредиторлар талаблари мазкур эълон чоп этилган кундан бошлаб 1 (бир) ой ичида тугатиш бошқарувчиси томонидан қабул қилинади.

Манзил: Урганч тумани, Қипчоқ маҳалласи, Дилкаш кўчаси, 39-уй. Тел: +99893-922-07-17.

Бухоро туманлараро иқтисодий судининг 2024 йил 17 январдаги 4-2001-2305/2100-сонли ҳал қилув қарорига асосан **“Bukhara fabric group co” МЧЖ** (СТИР 305217974) умумий тартибда тўловга қобилиятсиз (банкрот) деб топилиб, тугатишга доир иш юритиш бошланди. Тугатиш бошқарувчиси этиб 2-тоифали суд бошқарувчиси Неков Саиджон Садридинович тайинланди.

“Bukhara fabric group co“ МЧЖ молия-хўжалик фаолиятини таҳлил қилиш мақсадида аудиторлик ташкилотларини, жамиятга тегишли бўлган мол-мулкларни баҳолаш учун баҳоловчи ташкилотларни жалб қилиш бўйича танлов эълон қилади.

Аудиторлик ва баҳоловчи ташкилотлар тугатиш бошқарувчиси С.Нековга 2025 йил 20 июнгача мурожаат қилишлари мумкин.

Мурожаат учун манзил: Бухоро шаҳри, Ж.Икромий кўчаси, 19/1-уй, тел: (97) 308-00-90.

Пастдарғом туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 16 майдаги 4-1407-2501/3217-сонли ажримига асосан **“Bunyodkor obod Pastdarg` om” МЧЖ** (СТИР 306876321) ва Самарқанд шаҳар иқтисодий судининг 2025 йил 28 апрелдаги 4-1401-2503/7127-сонли ажримига асосан “Mir Selin farm” МЧЖга (СТИР 306837986) нисбатан тўловга қобилиятсизлик тўғрисида иш қўзғатилган ва кузатув тартиб-таомили жорий этилган. Муваққат бошқарувчи этиб Ниязов Жаҳонгир Уралович тайинланган.

Кредиторлар йиғилиши 2025 йил 23 июнь куни соат 11.00 да Самарқанд вилояти солиқ бошқармаси биносида бўлиб ўтади. Кредиторлар шахсини тасдиқловчи ҳужжат, ишончнома ва қарздорликни тасдиқловчи ҳужжат билан қатнашишлари мумкин. Талаблар эълон чиққан кундан бошлаб бир ой муддатда қабул қилинади.

Мурожаат учун тел: +99899-021-24-31.

“Daromad Plus” инвестиция фонди акциядорлик

жамияти акциядорлари диққатига!

2025 йил 25 июнь куни фонд акциядорларининг навбатдаги йиллик умумий йиғилиши соат 10.00 да Тошкент шаҳри, Мустақиллик шохкўчаси, 107-уй, 319-хонада ўтказилади.

Фонднинг электрон почта манзили: e-mail info@dapomad-plus.uz Вебсайт: www.dapomad-plus.uz.

Йиғилиш кун тартибида қуйидаги масалалар муҳокама қилинади:

1. “Daromad Plus” инвестиция фонди акциядорлик жамияти йиллик умумий йиғилиши регламентини тасдиқлаш.
2. “Daromad Plus” инвестиция фонди акциядорлик жамияти йиллик умумий йиғилиши саноқ комиссияси шахсий таркибини тасдиқлаш.
3. “Daromad Plus” инвестиция фонди акциядорлик жамияти кузатув кенгашининг корпоратив бошқарув тамойилларини бажарилиши бўйича ҳисоботини эшитиш ва тасдиқлаш.
4. Фонд активларининг ишончли бошқарувчиси “Kafolat-invest” МЧЖ директори Н.У.Хидировнинг “Daromad Plus” инвестиция фонди акциядорлик жамиятининг 2024 йил молия-хўжалик фаолияти якунлари ва бизнес режа кўрсаткичларининг бажарилиши бўйича ҳисоботини эшитиш ва тасдиқлаш.
5. 2024 йил якуни бўйича йиллик бухгалтерия баланси, молиявий натижалар ҳисоб варағини тасдиқлаш.
6. 2024 йил якуни бўйича “Daromad Plus” инвестиция фонди АЖнинг аудиторлик текшируви ва хулосасини тасдиқлаш.
7. Фонднинг 2024 йил якуни бўйича соф фойдасини тақсимлаш, акцияларга дивидендлар тўлаш масаласини кўриб чиқиш.
8. Жамиятнинг 2024 йил якунлари бўйича йиллик ҳисоботини тасдиқлаш.
9. Фонд активларининг ишончли бошқарувчиси “Kafolat-invest” МЧЖ билан шартномани (контрактни) тузиш тўғрисида.
10. Фонд кузатув кенгаши аъзоларини сайлаш.
11. 2025 йил учун ташқи аудиторни тайинлаш, унга тўланадиган хизмат ҳақи миқдорини белгилаш.

Фонд акциядорларига умумий йиғилиш тўғрисида хабар бериш учун акциядорлар рўйхати (реестри) 2025 йил 26 май кунига, умумий йиғилишда қатнашиш ҳуқуқига эга бўлган акциядорлар рўйхати (реестри) 2025 йил 19 июнь кунига белгиланди.

Акциядорлар умумий йиғилишда ўз шахсини тасдиқловчи ҳужжат ва ёзма ишончнома асосида қатнашади. Юридик шахс номидан берилган ишончнома қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда, жисмоний шахс номидан берилган ишончнома нотариал тартибда тасдиқланган бўлиши керак.

Йиғилиш ўтказиш бўйича қўшимча ахборот, унда кўриладиган масалаларнинг ҳужжатлари билан танишиш учун қуйидаги манзилга ва телефон рақами орқали мурожаат қилиш мумкин.

Тошкент шаҳар, Мирзо-Улуғбек тумани, Мустақиллик шохкўчаси, 107-уй.

Тел: (99) 865-00-99.

Кузатув кенгаши.

ЭЪЛОН!

Асака туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 16 майдаги 4-1702-2501/830-сонли ҳал қилув қарорига асосан Марҳамат туманида жойлашган **“MARXAMAT TEKSTIL” МЧЖ** (СТИР 301308911) тўловга қобилиятсиз деб топилиб, тугатишга доир иш очилган. Собиқ раҳбари томонидан тугатиш бошқарувчисига жамият муҳри топширилмаганлиги сабабли бекор бўлганлиги ва дубликат муҳр тайёрланиши билдирилади.

Қуйичирчиқ туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 23 майдаги 4-1103-2501/2880- сонли иш юзасидан қабул қилган ажрими билан Оққўрғон туманидаги **“Eko korantin bio” МЖЧга** (СТИР 310161554) нисбатан тўловга қобилиятсизлик иши қўзғатилиб, унга нисбатан кузатув таомили қўлланилган. Суднинг мазкур ажрими билан муваққат бошқарувчи этиб Б.Арифходжаев тайинланган.

Муваққат бошқарувчининг почта манзили: Жиззах вилояти, Жиззах шаҳри, Қассоблик МФЙ, 5/1-уй, 26-хонадон. Мурожаат учун тел: (77) 401-30-03.

Мазкур қарздор кредиторларининг биринчи йиғилиши 2025 йил 27 июнь куни соат 11.00 да, (шу куни бўлиб ўтмаган тақдирда такрорий йиғилиш 2025 йил 2 июль куни соат 11.00 да) Тошкент вилояти, Оққўрғон тумани, Оққўрғон шаҳри, Оққўрғон тумани солиқ инспекцияси маъмурий биносида бўлиб ўтади.

Йиғилишга кредиторлар ва унинг вакилларидан шахсни ҳамда қарздорликни тасдиқловчи ҳужжатлар, шунингдек йиғилиш иштирокчиси ваколатларини тасдиқловчи ишончномалар билан келиш сўралади.

Кун тартибига “Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида”ги қонун билан кредиторларнинг биринчи йиғилишида кўриб чиқиш ваколатлари берилган қарорлардан бирини қабул қилиш масаласи киритилган.

Ушбу маълумот эълон қилинган пайтдан эътиборан ўттиз кун ичида кредиторлар ўз талабларини қарздорга тақдим этиши сўралади.

Хўжаобод туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 15 апрелдаги 4-1701-2501/687-сонли ҳал қилув қарори билан, **“Inter sok lyuks” МЧЖ** (СТИР 301237154) тўловга қобилятсиз(банкрот) деб эътироф этилган ва тугатишга доир иш юритилиши белгиланган. Тугатиш бошқарувчиси этиб 3-тоифали суд бошқарувчиси Давлатов Шокиржон Шаробидинович тайинланган.

Хўжаобод туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 22 майдаги 4-1706-2501/687-сонли иш юритишни тугатиш тўғрисидаги ажрим билан “Inter sok lyuks” МЧЖни тўловга қобилиятсиз(банкрот) деб топиш юзасидан қабул қилинган 2025 йил 15 апрелдаги 4-1705-2501/687-сонли ҳал қилув қарори ижро этилмаслиги белгиланганлигини маълум қиламиз.

Тошкент туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 23 майдаги 4-1001-2503/39752-сонли ажримига асосан Тошкент шаҳар, Яккасарой тумани, Бобур кўчаси, 11-уйда жойлашган **“Invest Capital Textile” МЧЖ**га (СТИР 304877693) нисбатан тўловга қобилиятсизлик иши қўзғатилиб, кузатув тартиб-таомили жорий этилган. Муваққат бошқарувчи этиб Бозоров Эшбобо Абраевич тайинланган.

Кредиторларнинг биринчи йиғилиши 2025 йил 23 июнь куни Тошкент шаҳар, Юнусобод туман, 15-квартал, 53-уй, 7-хонадонда, соат 12.00 да бўлиб ўтади.

Қарздорга нисбатан талаб билдираётган кредиторлар талабларини тасдиқловчи ҳужжатлар ва овоз бериш ҳуқуқини берувчи ишончнома асосида кредиторлар йиғилишида қатнашадилар. Мурожаат учун телефон: (77) 151-55-77.

Марғилон туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 16 майдаги 4-1504-2501/8574-сонли иши ажримига асосан қарздор **“Linden” МЧЖга** (СТИР 305960242) нисбатан тўловга қобилиятсизлик тўғрисида иш қўзғатилиб, кузатув тартиб-таомили жорий қилинган. Муваққат бошқарувчи этиб 2-тоифали суд бошкарувчиси Назаров Абдирасул Аскарович тайинланган.

Кредиторлар йиғилиши 2025 йил 20 июнь куни соат 11.00 га белгиланди. Кун тартиби: 1. Муваққат бошқарувчининг ҳисоботи ва хўжалик фаолиятининг молиявий таҳлили. 2. Кредиторлар талаблари реестри. 3. Тўловга қобилиятсизлик (банкротликнинг) тартиб-таомилларидан бирини жорий этиш ва тугатиш (санация, ташқи бошқарув) бошқарувчисининг номзодини танлаш. 4. Муваққат бошқарувчига тўланадиган ҳақ миқдорини белгилаш ва бошқа масалалар.

Йиғилишда қатнашиш учун қатнашчиларда ишончнома, шахсини тасдиқловчи ҳужжатлар ва қарздорликни тасдиқловчи солиштирма далолатнома бўлиши шарт. Кредиторлар ўз талабларини ўттиз кун муддат ичида билдиришлари мумкин.

Мурожаат учун манзил: индекс: 150115, Фарғона шаҳри, С.Темур кўчаси, 43-б уй.

Телефон: +99894-130-17-33.

Кредиторлар диққатига!

Наманган вилояти судининг 2025 йил 14 майдаги 16-1702/2000-сонли ажримига асосан Наманган шаҳридаги **“Moddiy texnik baza” МЧЖга** (СТИР 202625734) нисбатан Наманган вилояти иқтисодий судининг 2017 йил 16 октябрдаги банкротликка доир ишни якунлаш ва давлат реестридан чиқариш ҳақидаги ажрими бекор қилинган. Шу иш бўйича 3-тоифали суд бошқарувчиси Солиев Икромжон Иброхимович тугатиш бошқарувчиси этиб тайинланган. Ушбу жамиятга нисбатан барча даъво ва эътирозлар эълон чиққан кундан бошлаб 30 кун ичида Наманган шаҳар, А.Навоий кўчаси, 72-уйда (тел: 94-558-00-04) тугатиш суд бошқарувчиси томонидан қабул қилинади.

Buxoro tumanlararo iqtisodiy sudining 2025-yil 5-maydagi 4-2001-2504/7520-sonli ajrimiga asosan **“Muzaffar tex servis” MChJ**ga (STIR 303007311) nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilib, kuzatuv taomili qo‘llanilgan va muvaqqat boshqaruvchisi etib Soliyev Damirjon Nurmatovich tayinlangan, shu munosabat bilan 2025-yil 30-iyun kuni soat 10.00 da, Buxoro viloyati, Buxoro shahri, Islom Karimov ko’chasi, 10-uyda jamiyat kreditorlarining 1-yig’ilishi bo’lib o’tishi rejalashtirilgan.

Yig‘ilishda quyidagi masalalar ko‘rib chiqiladi:

1. Buxoro tumanlararo iqtisodiy sudining 5-may 2025-yildagi 4-2001-2504/7520-sonli ajrimi bilan tanishtirish.
2. Kreditorlar reestrini tuzish va tasdiqlash.
3. Qarzdorga nisbatan bankrotlikning navbatdagi taomilini qo‘llash.
4. Muvaqqat boshqaruvchining ish haqini belgilash va tasdiqlash.

Yuqoridagi kreditorlar yig‘ilishida ko‘rib chiqiladigan masalalar bilan Buxoro shahar, M.Iqbol ko‘chasi, 10-uyda tanishib chiqishingiz mumkin.

Tel: +99890-718-01-59.

Kreditorlar yig‘ilishiga 30 daqiqa qolganda ro‘yxatga olish boshlanadi. Kreditorlar yig‘ilishida vakillar ishonch xatlari va shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etgandan keyin ishtirok etadilar.

Kreditorlar qarzdorga bo‘lgan talablarini yozma shaklda kreditorlik qarzini tasdiqlovchi barcha hujjatlarni ilova qilgan holda e’lon chiqqan kundan boshlab bir oy muddat ichida muvaqqat boshqaruvchi D.N.Soliyevga taqdim qilishlari mumkin.

Тошкент туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 23 майдаги 4-1001-2503/38891-сонли ажримига асосан Тошкент шаҳар, Чилонзор тумани, Катта Қозиробод 2-тор кўчаси, 21-уйда жойлашган **“Dos-ton-Plyus” МЧЖ**га (СТИР 305801099) нисбатан тўловга қобилиятсизлик иши қўзғатилиб, кузатув тартиб-таомили жорий этилган. Муваққат бошқарувчи этиб Бозоров Эшбобо Абраевич тайинланган.

Кредиторларнинг биринчи йиғилиши 2025 йил 23 июнь куни Тошкент шаҳар, Юнусобод туман, 15-квартал, 53-уй, 7-хонадонда, соат 11.00 да бўлиб ўтади.

Қарздорга нисбатан талаб билдираётган кредиторлар талабларини тасдиқловчи ҳужжатлар ва овоз бериш ҳуқуқини берувчи ишончнома асосида кредиторлар йиғилишида қатнашадилар. Мурожаат учун телефон: (77) 151-55-77.

"O'zengsanloyiha" МЧЖ иштирокчиларининг навбатдаги йиғилиши ўтказилиши бўйича

Хабарнома

Иштирокчилар диққатига!

"O'zengsanloyiha" МЧЖ иштирокчиларининг навбатдаги умумий йиғилиши 2025 йил 25 июнь куни соат 15.00 да Тошкент шаҳри, Яшнобод тумани, Шаҳрисабз кўчаси, 85-уйда жойлашган "O'zengsanloyiha" МЧЖ маъмурий биноси мажлислар залида ўтказилади.

Йиғилиш қатнашчиларини рўйхатга олиш соат 14.00 да бошланади.

Кун тартибидаги масалалар:

1. Жамият иштирокчилари умумий йиғилишининг регламентини тасдиқлаш.
2. Жамият саноқ комиссияси аъзолари сони ва шахсий таркибини тасдиқлаш.
3. Жамият кузатув кенгашининг 2024 молиявий йил якунлари бўйича ҳисоботини эшитиш.
4. Жамият директорининг 2024 молиявий йил якунлари ва бизнес-режа бажарилиши бўйича ҳисоботини кўриб чиқиш.
5. Жамиятнинг 2024 йил молия-хўжалик фаолияти якуни бўйича йиллик ҳисоботини, бухгалтерия балансини, фойда ва зарарлари ҳисобварағини тасдиқлаш.
6. Жамиятнинг 2024 йил молия-хўжалик фаолиятини текшириш натижалари юзасидан аудиторлик ташкилоти хулосасини тасдиқлаш.
7. Жамиятнинг 2025 йил учун бизнес-режасини тасдиқлаш.
8. Жамият директори билан тузилган шартнома муддатини узайтириш.
9. Жамиятнинг 2025 йил йил молия-хўжалик фаолиятини текшириш учун ташқи аудиторлик ташкилотини тасдиқлаш ва унинг хизматларига тўланадиган ҳақнинг энг кўп миқдорини аниқлаш.
10. Жамиятнинг 2024 йил якунлари бўйича соф фойдасини тақсимлаш.

Иштирокчилар ўзлари билан шахсини тасдиқловчи ҳужжат–паспорт, иштирокчиларнинг вакиллари Ўзбекистон Республикаси қонунчилигида белгиланган тартибда расмийлаштирилган (юридик шахслар учун – мазкур юридик шахс томонидан берилган) ишончнома билан келишлари шарт.

Иштирокчилар навбатдаги умумий йиғилиш тўғрисидаги маълумотлар билан "O'zengsanloyiha" МЧЖ маъмурий биносида танишишлари мумкин.

Қўшимча маълумот олиш учун қуйидаги манзилга мурожаат этилиши сўралади: Тошкент шаҳри, Яшнобод тумани, Шаҳрисабз кўчаси, 85-уй.

Тел: (71) 233-32-64.

Кузатув кенгаши.

"O'zsuvloyiha" АЖ бош директор лавозимига танлов эълон қилади!

Тошкент шаҳар, Лабзак кўчаси, 1-а уйда жойлашган "O'zsuvloyiha" АЖ Ўзбекистон Республикаси резидентлари ва норезидентлари ўртасида акциядорлик жамиятининг бош директори лавозимига номзодлар танловини эълон қилади.

Талабгорга қўйиладиган асосий талаблар

Таълим бўйича талаб:

– Ўзбекистон Республикасининг олий таълим муассасаларида ёки хорижий давлат таълим муассасасида олинган ва Ўзбекистон Республикаси қонунчилигига мувофиқ Ўзбекистон Республикасида таълимга тенг деб тан олинган муҳандис-гидротехник ёки муҳандис-механик (сув хўжалиги қурилиши муҳандиси) мутахассислиги бўйича олий маълумот.

Малакавий талаблар:

– сув хўжалиги соҳасида камида 5 йил иш тажрибаси;
– ёши 30 ёшдан;
– лойиҳа-тадқиқот ишларини такомиллаштириш, нархини пасайтириш, сув иншоотларини лойиҳалашнинг илғор усулларини жорий этиш, лойиҳа-смета ҳужжатларини ишлаб чиқиш харажатларини камайтириш ва унинг сифатини яхшилаш бўйича ишларни ташкил этиш қобилияти;
– сув хўжалиги объектларини лойиҳалашда узоқ муддатли ва жорий режаларни ишлаб чиқиш қобилияти;
– манзилли рўйхатларда кўзда тутилган ишларнинг бажарилишини таъминлаш ва сув хўжалиги қурилиш объектлари учун ЛСҲ ишлаб чиқиш учун зарур бўлган вақтни қисқартириш қобилияти;
– буюртмачи ва пудратчилар билан тузилган шартномалар бўйича банк операцияларини амалга оширишни ташкил этиш ва белгиланган муддатда объектларга ЛСҲ ишлаб чиқишни таъминлаш ва ривожлантириш қобилияти;
– қурилиш нормалари ва қоидаларига мувофиқ ЛСҲни ишлаб чиқиш вақти ва сифати устидан назоратни таъминлаш қобилияти;
– меҳнатни ташкил этишнинг прогрессив шаклларини жорий этишни, уларга бўйсунадиган бўлинмаларда ходимларнинг касбий ва малака салоҳиятидан тўғри фойдаланишни таъминлаш қобилияти.

Билиши керак:

– Республикада сув хўжалиги қурилишини ривожлантиришни тартибга солувчи Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари (қурилиш нормалари ва қоидалари) ҳамда иқтисодиётни ривожлантиришнинг устувор йўналишларини белгиловчи бошқа меъёрий ҳужжатлар;
– корпоратив бошқарув бўйича ишлаш кўникмаларига эга бўлиш;
– компютерда ишлаш кўникмаларига эга бўлиш;
– тилни билиш (резидентлар учун): ўзбек тилида – равон гапириш, рус тилида – равон гапириш, инглиз тилини билиш – олқишланади.

Вазифалари:

Жамиятнинг жорий фаолиятини бошқариш, унинг самарали ва барқарор ишлашини таъминлаш;

Дастурлар ва бизнес-режани ишлаб чиқишни бошқариш, бажарилишини ташкил этиш ва назорат қилиш;

Жамиятнинг молиявий-иқтисодий ҳолатини яхшилаш чораларини кўриш, жамиятнинг шартнома мажбуриятлари бажарилишини таъминлаш;

Ишлаб чиқариш ва ижтимоий соҳани ривожлантириш учун зарур бўлган миқдорда фойда олинишини таъминлаш;

Ходимлар учун ижтимоий кафолатлар ва хавфсиз меҳнат шароитларига риоя этилишини таъминлаш;

Амалдаги қонунчилик, қонун ҳужжатлари ва жамиятнинг ички меъёрий ҳужжатлари талабларига мувофиқлигига риоя қилиш.

Асосий иш шароитлари:

Иш вақти: 5/2, 8.00 дан 17.00 гача.

Иш доимий. Ўзбекистон Республикаси меҳнат кодексига мувофиқ расмийлаштирилади.
Иш ҳақи: штат жадвалига мувофиқ.

Бошқа тўловлар жамиятнинг ички низомларига мувофиқ амалга оширилади.

Танлов шартлари:

Мурожаат қилган номзодларнинг ҳужжатлари (резюме ёки объектив маълумотнома, диплом ва сертификатлар нусхалари, резидентлар учун меҳнат дафтарчаси нусхаси, тавсияномалар ва бошқалар.) Тошкент шаҳар, Шайхонтоҳур тумани, Лабзак кўчаси, 1-а уйда қабул қилинади.

Танловга аризалар ушбу эълон нашр қилинган кундан бошлаб 30 кун ичида қабул қилинади.

Тел: (71) 241-48-30, (71) 241-78-56, (71) 241-15-04. e-mail:info@uzsuvloyiha.uz

"O'zsuvloyiha" АЖ кузатув кенгаши.

Самарқанд шаҳар иқтисодий судининг 2025 йил 19 майдаги 4-1401-2501/7620-сонли ҳал қилув қарорига асосан қарздор **"Unistroy mego" МЧЖга** (СТИР 309913803) нисбатан тугатишга доир иш юритиш жорий қилинган ва тугатиш бошқарувчиси этиб Савурбаев Шавкат Абдувакулович тайинланган.

Кредиторлар ўз талабларини бир ой давомида билдириши мумкин. Самарқанд шаҳри, М.Улуғбек кўчаси, 96-уйга мурожаат қилинсин.

Кредиторлар йиғилиши 2025 йил 30 июнь куни соат 10.00 да Самарқанд вилояти солиқ бошқармаси (Самарқанд шаҳар, Гагарин кўчаси, 85-а уй) биносида ўтказилади.

Агар кворум бўлмаган тақдирда, такрорий йиғилиш 2025 йил 4 июль куни соат 10.00 да юқорида кўрсатиб ўтилган манзилда ўтказилади.

Йиғилишга кредиторлар ва унинг вакилларидан шахсни ҳамда қарздорликни тасдиқловчи ҳужжатлар, шунингдек йиғилиш иштирокчиси ваколатларини тасдиқловчи ишончномалар билан келиш сўралади.

Мурожаат учун тел: +99895-575-00-17.

"Qizilqumsement"акциядорлик жамиятининг навбатдаги умумий йиғилиши 2025 йил 20 июнь куни соат 11.00 да корхона фаоллар залида ўтказилади.

(йиғилиш E-vote тизими орқали ўтказилиши ҳам мумкин).

Кун тартиби:

1. Саноқ комиссияси таркибини тасдиқлаш.
2. Кузатув кенгашининг 2024 йил натижалари ва жамиятни ривожлантириш стратегиясига эришиш бўйича ҳисоботини кўриб чиқиш.
3. Бош директорнинг 2024 йил ва жамиятни ривожлантириш стратегиясига эришиш бўйича ҳисоботини кўриб чиқиш.
4. Ташқи аудитор хулосасини бухгалтерия ҳисобининг миллий стандартлари бўйича (НСБУ) тасдиқлаш.
5. 2024 йил бухгалтерия балансини миллий стандартлари бўйича (НСБУ) тасдиқлаш.
6. Жамиятнинг 2020-2021-2022-2023 ва 2024 йил якунлари бўйича олган соф фойдасини тақсимлаш.
7. Жамиятда корпоратив бошқарув тизимини баҳолаш тўғрисида.
8. 2025 йилга мўлжалланган бизнес-режани тасдиқлаш.
9. Корхонада оптимизация ишларини амалга оширилиши (ходимлар сони ёки штати ўзгариши ва қисқартирилиши) эвазига корхонанинг янгиланган ташкилий тузилмаси (структураси)ни тасдиқлаш.
10. Кузатув кенгаши қарорларини тасдиқлаш.

Манзил: Навоий шаҳар, "Qizilqumsement" АЖ мажлислар зали. Йиғилиш тўғрисида акциядорларга хабар бериш рўйхати 2025 йил 27 май ҳолатидаги реестр билан тузилади. Йиғилишда иштирок этиш учун акциядорлар рўйхати 2025 йил 16 июнь ҳолатидаги реестр асосида тузилади. Акциядорларни рўйхатга олиш вақти 2025 йил 20 июнь соат 10.00 дан 11.00 гача.

Қўшимча ахборот ва маълумотларни (79) 229-84-56 телефон рақами орқали (info@qizilqumsement.uz) олиш мумкин.

Жамият маъмурияти.

Тошкент туманлараро иқтисодий судининг ҳал қилув қарорига асосан қуйидаги корхонага нисбатан банкротликнинг соддалаштирилган тартиби қўлланилиб, банкрот деб эълон қилинган. Суд тугатиш бошқарувчиси этиб 3-тоифали суд тугатиш бошқарувчиси **Каримов Файзулла Мирзахматович** тайинланган.

Т/р	Хўжалик юритувчи субъект номи	СТИР	Ҳал қилув қарори ва ажрими	
			рақами	санаси
1	"Raihan food" МЧЖ	304564481	4-1001-2506\28890	20.05.2025

Кредиторлар ўз талабларини 1 ойлик муддат давомида билдиришлари мумкин. Шунингдек, мазкур корхона кредиторларининг биринчи йиғилиши 2025 йил 26 июнь куни соат 10.00 да Тошкент шаҳар, Чилонзор даҳаси, 17-мавзе, 39-уй, 18-хонадонда бўлиб ўтади.

Мазкур корхонанинг низоми (устав) ва барча таъсис ҳужжатлари ҳамда унга тегишли бўлган муҳр ва штамплар бекор қилинади. Маълумот учун тел: (93) 531-01-33.

Сариосиё туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 2 майдаги 4-1903-2501/1552-сонли ажримига асосан "Sado-Chexra" савдо ишлаб чиқариш хусусий корхонасига нисбатан (СТИР 301551191) тўловга қобилиятсизлик таомили сифатида кузатув жорий этилган. Муваққат бошқарувчи этиб 3-тоифали суд бошқарувчиси Э.Менглибоев тайинланди.

Шу муносабат билан мазкур жамият кредиторларининг биринчи йиғилиши 2025 йил 23 июнь куни соат 11.00 да Қумқўрғон тумани, Навоий кўчаси, 8-уйда бўлиб ўтади.

Жамият кредиторларининг биринчи йиғилишида қуйидаги масалалар кўриб чиқилади:

1. Муваққат бошқарувчининг тўловга қобилиятсизликнинг кузатув таомилида қилган ишлари юзасидан берган ҳисоботи тўғрисида.
2. Қарздорга нисбатан тўловга қобилиятсизлик таомилини қўллаш юзасидан иқтисодий судга мурожаат этиш тўғрисидаги овоз бериш бюллетени.
6. Аудиторлик ташкилотининг 2024 йил учун хулосасини кўриб чиқиш. (Бухгалтерия ҳисоби миллий стандарти, молиявий ҳисоботнинг халқаро стандарти).
7. 2024 йил давомида жамиятда корпоратив бошқарув тизимини баҳолаш бўйича мустақил аудиторлик ташкилоти хулосасини қўриб чиқиш.
8. Жамиятнинг 2024 йил учун йиллик ҳисоботини, шу жумладан 2024 йил учун бухгалтерия баланси, фойда ва зарарлари тўғрисидаги ҳисоботни тасдиқлаш.
9. Жамиятнинг 2024 йил учун соф фойдасини тақсимлаш тартибини тасдиқлаш.
10. Жамиятнинг жорий хўжалик фаолиятини амалга ошириш жараёнида келажакда амалга оширилиши мумкин бўлган аффилланган шахслар билан тузилган битимларни акциядорларнинг навбатдаги йиллик умумий йиғилишига қадар кўриб чиқиш.
11. Жамият директорининг ваколатини узайтириш тўғрисида.
12. "Minora qurish ekspeditsiyasi" АЖ янги ташкилий тузилмасини тасдиқлаш.

Изоҳ: Ҳурматли акциядорлар, "Minora qurish ekspeditsiyasi" АЖ акциялар бўйича дивидендларни тўлашни давом эттирмоқда.

Маълумот учун тел.: + 99899 0429648. E-mail: mqe_aj@mail.ru

"Minora qurish ekspeditsiyasi" АЖ кузатув кенгаши.

Таъзияномa

Ўзбекистон Республикаси Давлат активларини бошқариш агентлиги ҳузуридаги Хусусийлаштириш ва давлат активларини бошқариш муаммоларини тадқиқ этиш маркази жамоаси марказ бўлим мудири Каюмов Равшан Исмаиловичга онаси ЗАРО онанинг вафот этганлиги муносабати билан чуқур ҳамдардлик билдиради.

Bojxona qo‘mitasi axborot xizmati.

Bojxona sohasida hamkorlik kelishuvlariga erishilib, hujjatlar imzolandi

Qozog‘istonning Olmaota shahrida Markaziy Osiyo davlatlari va Xitoy bojxona xizmatlari rahbarlarining “S5+1” formatidagi ikkinchi uchrashuvida mamlakatimiz Bojxona qo‘mitasi raisi A.Mavlonov ishtirok etdi.

Tadbirda dastlab 2023-yil 21-aprelda Xitoy tomoni tashabbusi bilan onlayn tarzda bo‘lib o‘tgan Markaziy Osiyo mamlakatlari va Xitoy bojxona idoralari rahbarlarining birinchi yig‘ilishida erishilgan kelishuvlar ijrosi muhokama qilindi. Ta’kidlanganidek, bojxona sohasida “Markaziy Osiyo – Xitoy” formatidagi hamkorlik o‘zaro savdo-iqtisodiy aloqalar kengayib borayotgan bir davrda bojxona tartibotlarini o‘zaro uyg‘unlashtirish va soddalashtirishga xizmat qiluvchi qulay platforma sifatida ko‘rilmoqda. Uchrashuvda O‘zbekiston tomoni bojxona ishida innovatsiyalar va raqamlashtirish bo‘yicha o‘zaro tajriba almashinuvini kengaytirish taklifini ilgari surdi. Yig‘ilganlar e’tiboriga bu boradagi milliy tajriba namoyish qilindi. Hozirda bojxona organlari faoliyatiga 35 ta axborot tizimi, 40 ta elektron xizmat, 11 ta mobil ilova joriy qilingan. Axborot tizimlari 8 ta xorijiy davlat, 1 ta xalqaro tashkilot, 33 ta vazirlik va idora hamda 41 ta aviakompaniya bilan integratsiya qilingan. Eng muhimi, sohani raqamlashtirishda sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu maqsadda ilk bor Bojxona qo‘mitasi raisining sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha maslahatchisi lavozimi ta’sis etildi. Bojxona deklaratsiyalarini elektron rasmiylashtirish tizimida sun’iy intellekt elementlarini qo‘llagan holda tovarlarni tashish xarajatlari hamda TIF TN kodlarini avtomatik aniqlash tizimi yo‘lga qo‘yildi. Bu esa bojxona rasmiylashtiruvi jarayonlarini 30 daqiqagacha qisqartirish imkonini bermoqda.





Yig‘ilishda o‘tkazish punktlari sohasida hamkorlik kelishuvi loyihasi ham qizg‘in muhokama qilindi. Chunki chegara bojxona postlarining o‘tkazuvchanligini oshirish bir tomonlama jarayon emas, bunda faoliyatni uyg‘unlashtirish, infratuzilmani paralel ravishda rivojlantirish alohida ahamiyatga ega. O‘zbekistondagi barcha chegara-bojxona postlari (“Ayritom”dan tashqari) aynan Markaziy Osiyo davlatlari bilan chegarada joylashgan bo‘lib, 2024-yilda mazkur o‘tkazish punktlari orqali 31 mln. nafar jismoniy shaxs va 3 mln.ta transport vositasi harakatlangan. Bu ko‘rsatkich 2023-yilga nisbatan 22 foizga ortgan. Markaziy Osiyo davlatlari BMTning 1982-yildagi "Chegaralarda yuklarni nazorat qilish shartlarini kelishish to‘g‘risida"gi xalqaro konvensiyasiga a’zo. Ammo, Xitoy ushbu konvensiya ishtirokchisi emasligidan kelib chiqilsa, o‘tkazish punktlari sohasida hamkorlik kelishuvi mazkur bo‘shliqni to‘ldirishga xizmat qiladi.

Uchrashuvda O‘zbekiston tomoni 2025-2027-yillarda ta’lim sohasida ko‘p tomonlama hamkorlikni yo‘lga qo‘yish taklifini ilgari surdi. Shu munosabat bilan ishlab chiqilgan hujjat loyihasi sun’iy intellekt va axborotlar tahlili, virtual ta’lim, bojxona sohasidagi ta’lim muassasalarining mintaqaviy tarmog‘ini tashkil qilish, hamkorlikdagi ilmiy tadqiqotlar kabi ko‘plab masalalarni o‘zida qamrab olishi ma’lum qilindi.

Yig‘ilish yakunida inspeksion ko‘rik majmualaridan olingan tasvirlarning intellektual tahlili hamda bojxonada xavflarni boshqarish bo‘yicha hamkorlikni nazarda tutuvchi memorandumlar imzolandi. Markaziy Osiyo davlatlari va Xitoy bojxona xizmatlari rahbarlarining navbatdagi uchrashuvi 2027-yilda Qirg‘izistonda bo‘lib o‘tishi rejalashtirildi.

Mazkur xalqaro tadbir doirasida Bojxona qo‘mitasi raisi A.Mavlonov turli ikki tomonlama uchrashuvlarni o‘tkazdi. Jumladan, Xitoy Xalq Respublikasi Bosh bojxona ma’muriyati vaziri Sun Meyszyun bilan uchrashdi. Muloqot chog‘ida ikki tomon bojxona xizmatlari o‘rtasida so‘rovnoma-ma’lumot almashish, kadrlar malakasini oshirish, xususan Shanxay bojxona universiteti bilan hamkorlikni izchillik bilan davom ettirish, vakolatli iqtisodiy operatorlarni o‘zaro tan olish masalalari atroflicha ko‘rib chiqildi. Bojxona hududida qayta ishlash borasida Xitoy tajribasi bilan yaqindan tanishish maqsadida O‘zbekiston delegatsiyasining mazkur davlatga bo‘ladigan ishchi tashrifiga tayyorgarlik masalalari ham muhokama qilindi.

Mamlakatimiz Bojxona qo‘mitasi raisi shuningdek, Qozog‘iston moliya vazirligining davlat daromadlari qo‘mitasi raisi J.Duysembiyev bilan ham muloqotda bo‘ldi. Suhbat asnosida O‘zbekistondagi chegara-bojxona postlarida bosqichma-bosqich joriy qilinayotgan “elektron navbat” tizimi bo‘yicha so‘z yuritildi. Mazkur tizim ilk bor aynan Qozog‘iston bilan chegarada joylashgan “Navoiy” bojxona postida joriy qilinadi. Muloqotda bojxona xizmatlari o‘rtasida axborot almashinuvini yanada kengaytirish, xususan yirik inspeksion majmualaridan olingan skaner tasvirlarini o‘zaro almashish imkoniyatlari ko‘rib chiqildi. Bojxona postlari orqali harakatlangan yengil avtotransport vositalariga doir ma’lumotlarni almashishning texnik shartlari muhokama qilindi. Ikkala davlat o‘rtasidagi “Oq oltin”– “Selinniy” hamda “Malik” – “Sirdaryo” chegara bojxona postlari orqali bo‘sh yuk avtotransport vositalari va yirik gabaritli bo‘lmagan yuklar harakatini yo‘lga qo‘yish masalasi ham ko‘rib chiqildi. Har ikki davlatda bojxona xizmati vakillarini ta’sis etish bo‘yicha kelishuv, o‘zaro hamkorlikning yangi rejasi ko‘rib chiqildi. O‘zaro aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan hujjatlar imzolandi.

Tarmoqda eksport ko‘lami ortmoqda

“O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi axborot xizmati rahbari Jamshid Shermetov tomonidan o‘tkazilgan brifingda ta’kidlanishicha, joriy yilda 1,2 mlrd dollarlik qurilish materiallarini eksport qilish rejalashtirilgan.

Ayni shu maqsadga erishish yo‘lida ko‘rilgan choralar natijasida hamda eksport geografiyasini va mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish hisobiga joriy yilning o‘tgan davrida tarmoq korxonalari tomonidan jami 255 mln dollar miqdorida eksport amalga oshirildi, o‘sish 117 foizni tashkil etgan.

Eksport qilingan mahsulotlarning 23,0 foizi metall buyumlar, 10,9 foizi PVX profil, truba va plastmassa mahsulotlari, 9,8 foizi keramika mahsulotlari, 8,8 foizi alyumindan yasalgan qurilish materiallari, 8,4 foizi gulqog‘oz va boshqa qog‘oz mahsulotlari kabilar ulushiga to‘g‘ri kelgan. Eksport qilingan qurilish materiallari turi 55 dan 66 taga, eksport geografiyasi 51 davlatdan 58 taga ortgan.

Davlatlar kesimidagi tahlilga ko‘ra, eksport qilingan mahsulotlarning 23,8 foizi Rossiya Federatsiyasi, 20,4 foizi Qozog‘iston, 12,9 foizi Tojikiston, 11,5 foizi Qirg‘iziston, 3,7 foizi Belarus, 2,4 foizi Turkmaniston, 2,2 foizi Ozarbayjon,



2,2 foizi AQSH, 2,0 foizi Litva, 1,9 foizi Estoniya davlatlariga to‘g‘ri kelgan. Shuningdek, Tailand, Malta, Maldiv, Bangladesh, Meksika, Braziliya, Pokiston, Argentina, Daniya, Islandiya, Angola, Baxreyn singari mamlakatlar bozorlari o‘zlashtirilishi evaziga eksport geografiyasi kengaytirilgan. Eksport ko‘lamini kengaytirish, yangi hamkorlarni topish maqsadida mahalliy tadbirkorlar va uyushma mutaxassislari Rossiya, Tojikiston, Turkmaniston, Qozog‘iston, Turkiya, Ozarbayjon, Xitoy, Eronda tashkil etilgan xalqaro ko‘rgazma hamda forumlarda ishtirok etishmoqda.

“O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi tomonidan 2023-yilda dastlab Ozarbayjonning Boku shahrida O‘zbekiston savdo uyi ochilgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib Tojikistonning Dushanbe, Afg‘onistonning Qobul, AQSHning Filadelfiya shaharlarida ham shunday savdo maskanlari tashkil etilgan.

Alohida ta’kidlanganidek, aksariyat qurilish materiallari bo‘yicha tarmoqda yangi quvvatlarning yaratilishi yoki modernizatsiya qilinishi, investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi, yangi korxonalarning eksportga jalb etilishi orqali ba’zi turdagi qurilish materiallari eksportini bir necha barobarga oshirishga muvaffaq bo‘lingan. Masalan, joriy yil may oyiga qadar 2024-yilning mos davriga nisbatan portlandsement 35,0 barobarga, DSP, MDF va boshqa plitalar 2,3 barobarga, tabiiy tosh mahsulotlari 1,9 barobarga, alyumindan qurilish materiallari 1,9 barobarga, oyna va undan yasalgan buyumlar 1,5 barobarga, keramika mahsulotlari 1,4 barobarga ko‘p eksport qilingan.

Qurilish materiallarining eksport bozorlari asosan qo‘shni va MDH davlatlari hisoblanadi. Yil boshidan Rossiya Federatsiyasiga 60,6 mln dollarlik, Qozog‘istonga 52,0 mln dollarlik, Tojikistonga 32,9 mln dollarlik, Qirg‘izistonga 29,4 mln dollarlik, Belarusga 9,3 mln dollarlik, Turkmanistonga 6,2 mln dollarlik, Ozarbayjonga 5,7 mln dollarlik, AQSHga 5,7 mln dollarlik, Litvaga 5,1 mln dollarlik, Estoniyaga 4,9 mln dollarlik qurilish materiallari eksporti amalga oshirilgan.



Zamira Tojiyeva.

Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalari: tahlillar va takliflar

Senatning Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo‘mitasi yig‘ilishi mazkur masala muhokamasiga bag‘ishlandi.

Qo‘mita raisi o‘rinbosari Odiljon Mamatkarimovning ta’kidlashicha, alohida tashkil etilgan ishchi guruh 17-25-aprel kunlari Andijon, Jizzax, Namangan, Qashqadaryo, Sirdaryo, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida bo‘lib, bu hududlardagi maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ) faoliyati samaradorligini oshirish, investitsiyaviy jozibadorligini kuchaytirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarni o‘rgangan. Parlament nazorati doirasida o‘tkazilgan ushbu o‘rganish jarayonida senatorlar, ekspert guruhlar, xalq deputatlari mahalliy kengashlar, hokimliklar, mutasaddi vazirlik-idoralar vakillari faol ishtirok etishgan.



Ma’lum bo‘lganidek, “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi qonun bilan bunday zonalarni tashkil etish, ularning faoliyat ko‘rsatishiga doir huquqiy munosabatlar hamda tartib-taomillar takomillashtirilgan. Ma’muriy funksiyalar nomarkazlashtirilib, MIZ direksiyalari vakolatlari kengaytirilgan, boshqarish mexanizmi soddalashtirilgan. Bularning barchasi sohadagi faoliyatga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatgan. Masalan, Andijon viloyatidagi “Ipak yo‘li”, “Andijon-farm”, “Mashinasozlik va elektrotexnika”, Jizzax viloyatidagi “Zomin-farm”, “Jizzax”, Namangan viloyatidagi “Kosonsoy-farm” va “Namangan”, Sirdaryo viloyatidagi “Sirdaryo-farm”, “Sirdaryo”, Surxondaryo viloyatidagi “Termiz”, Toshkent viloyatidagi “Angren”, “Bo‘stonliq-farm”, “Parkent-farm” MIZda 28,3 trln so‘mlik 195 ta loyihani amalga oshirish hisobiga 30 mingdan ziyod doimiy ish o‘rni yaratilgan. MIZ ishtirokchilari tomonidan 2024-yilda 27 trln so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilgan, eksport hajmi qariyb 253 mln AQSH dollarini tashkil etgan.

Shu bilan birga senatorlar tomonidan e’tirof etilganidek, tahlillar MIZning tashkiliy-huquqiy faoliyatida, jumladan investitsiya loyihalarini tatbiq etishda ayrim kamchilik va muammolar saqlanib qolayotganligini ham ko‘rsatgan. Aniqlanishicha, bir qator MIZlar umuman eksport qilmagan. MIZ ishtirokchilarining faoliyat samaradorligini reyting asosida baholovchi mexanizm mavjud emas. Bu samarali ishlayotgan ishtirokchilarni rag‘batlantirish, raqobat muhitini shakllantirish imkoniyatini cheklamoqda. Soliq imtiyozlarining amal qilish muddatlari ko‘p hollarda qurilish ishlaridan tortib mahsulot ishlab chiqarishgacha bo‘lgan davrga to‘g‘ri kelmoqda. Boshqa kamchiliklar ham ta’kidlangan holda, MIZ faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish, jumladan MIZni xususiy boshqaruvga berish, eksportga ixtisoslashtirish, yer maydonlarini auksionga chiqarish tartibini yanada soddalashtirish bo‘yicha tavsiyalar berildi.

Qo‘mita yig‘ilishida hududlarning sanoat salohiyatini to‘liq ishga solish, kichik sanoat zonalarini (KSZ) tashkil etishning borishi yuzasidan joriy yil yanvar oyida o‘tkazilgan jamoatchilik nazoratining yakuniga ham to‘xtalib o‘tildi. "Yuksalish" harakati raisi maslahatchisi Umid Rajabovning bu haqda axborot berib ma’lum qilishicha, 90 ta kichik sanoat zonasining bugungi holati bo‘yicha tadbirkorlarning fikri o‘rganilgan, natijada qator muammolar aniqlangan. Masalan, hududlardagi mas’ul mutasaddilar tomonidan tashkiliy vazifalarning o‘z vaqtida bajarilmaganligi, yer maydonining noto‘g‘ri tanlanganligi va boshqa sabablarga ko‘ra, 11 ta KSZ da atigi 1 tadan tadbirkor joylashtirilgan bo‘lsa, tashkil etilishi belgilangan 15 ta KSZ ning faoliyati bugungi kunga qadar yo‘lga qo‘yilmagan. Misol uchun, 2024-yilda Koson tumani “Do‘stlik” MFYda 6,5 gektar yer maydonida “Koson to‘qimachilik” KSZ tuzish belgilangan. Biroq ajratilgan maydon tadbirkorga tegishli nizoli yer bo‘lganligi sababli, ishlar amalga oshirilmagan. Shofirkon tumanida 2022-yilda 10 gektar maydonda “Mingchinor” KSZ tashkil etilgan bo‘lib, jami 39 ta lot auksionga chiqarilgan. Lekin ushbu KSZ tuman markazidan 25 km uzoqlikda joylashganligi bois, bugungi kunga qadar atigi 1 ta loyiha (3 ta lot) amalga oshirilmoqda. O‘rganilgan KSZlarning 58 tasida (64 foiz) tabiiy gaz, elektr energiyasi, ichimlik suvi ta’minoti, kanalizatsiya va yo‘l infratuzilmasi bilan bog‘liq muammolar mavjud. Jumladan, tabiiy gaz bo‘yicha 39 ta KSZ tarmoqqa ulanmagan, 1 ta KSZ qisman ta’minlangan hamda 4 ta KSZda bosim past va uzilishlar bor. Elektr energiyasi bo‘yicha 17 ta KSZ tarmoqqa ulanmagan, 5 ta KSZda kuchlanish past va tez-tez uzilishlar bo‘lib turadi. 17 ta KSZda yo‘l infratuzilmasi mavjud emas va 15 tasi ta’mirtalab ahvolda. Shuningdek, 33 ta KSZ toza ichimlik suvi bilan ta’minlanmagan va 44 ta KSZda oqova suv tarmog‘i mavjud emas yoki ishlamaydi. Qorako‘l tumanida 2021-yilda 5 gektar yer maydonida tashkil etilgan “Do‘rmon” KSZ da jami 17 ta lot auksion savdolariga chiqarilgan. Bugungi kunga qadar muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasining mavjud emasligi sababli, faqatgina 1 ta lot sotilgan, xolos. Olot tumanidagi “Xalifa” KSZ-1 da “Olot Asaka Tekstil” MChJ tomonidan mato va trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish loyihasi uchun 2023-yilda 100 ta zamonaviy dastgoh olib kelingan. Loyihani amalga oshirish maqsadida jami 121,3 mlrd. so‘m mablag‘ sarflangan. Ammo, hududda elektr ta’minoti bilan bog‘liq muammolar borligi va mavjud



transformatorlarda yuqori kuchlanishga ega elektr toki bo‘lmaganligi sababli korxona ishga tushirilmagan.

Tahlillar KSZlarning boshqaruv direksiyalari faoliyatini tadbirkorlar bilan hamkorlik va mavjud muammolarni samarali hal etish nuqtayi nazaridan takomillashtirish zaruratini ko‘rsatmoqda. Monitoring davomida tadbirkorlar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnomada respondentlarning 49,7 foizi KSZ yagona direksiyalari faoliyatidan qoniqmasligini bildirgan. Jumladan, direksiyalar tomonidan talab qilinadigan hisobot



turlarining ko‘pligi, murojaatlarning e’tiborsiz qoldirilishi, ular tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlarning sifatsizligi, qo‘llab-quvvatlashning yetarli darajada emasligi aytib o‘tilgan. So‘rovnomada ishtirok etgan KSZlarda ishlab chiqarish bilan shug‘ullanayotgan 151 nafar tadbirkorning 83,4 foizi (126 nafar) KSZ dagi yer, bino va inshootlari xususiylashtirmagan. Faqatgina 16,6 foizi (25 nafar) KSZ a’zoligi bilan bog‘liq investitsiya majburiyatlarini bajargan holda bino-inshootlari xususiylashtirganligini ma’lum qilgan. So‘rovda qatnashgan tadbirkorlarning 35,8 foizi (54 nafar) KSZga kirishda o‘z mablag‘lari hisobidan mavjud binoda ta’mirlash ishlarini amalga oshirgan. Ularning 64,2 foizi (97 nafar) o‘z mablag‘lari hisobidan quruq yerga bino va inshootlar qurgan. Tadbirkorlarning 21 foizi (32 nafar) investitsiya shartlarini bajarib bo‘lganligiga qaramay, bino-inshootlarni xususiylashtirish ishlari kechiktirilayotganligini bildirgan. KSZ ishtirokchisi yuridik shaxs bo‘lishiga qaramay, sanoat zonalaridan yer maydonlari sotib olayotganlarning aksariyati jismoniy shaxslarni tashkil etmoqda. Buning natijasida loyihani amalga oshirish va hujjatlarni rasmiylashtirish hamda ular bilan majburiyatlarga kirishishda muammolar yuzaga kelmoqda.

Ma’ruzachi holatni o‘rgangan ishchi guruh tomonidan mavjud muammolarni hal qilish bo‘yicha bir qator takliflar ishlab chiqilganini ham ma’lum qildi. Unga ko‘ra, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat va tuman hokimliklari KSZlar uchun yer uchastkalarini tanlashda tadbirkorlarning fikrini hisobga olgan holda, qulay joylarni tanlash mexanizmini ishlab chiqishi darkor. Yer uchastkalarini auksionga chiqarishda, qurilish muddatlari, investitsiya hajmi va ish o‘rinlarini yaratish bo‘yicha aniq talablarni belgilash lozim. Tadbirkorlar bilan ishlash tizimini yaxshilash va muammolarni tezkor hal etish bo‘yicha KSZ direksiyalarining mas’uliyati va funksiyalarini qayta ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq. Tadbirkorlarga davlat xizmatlarini “yagona darcha” tamoyili asosida taqdim etish mexanizmlarini joriy etish, yer uchastkalarini faqat yuridik shaxslarga sotish bo‘yicha talablarni belgilash, KSZlarni tashkil etish, rivojlantirish va monitoring qilish bo‘yicha yagona strategiyani, har bir KSZ bo‘yicha 5 yillik rivojlanish dasturini ishlab chiqish, respublikada mavjud kichik sanoat zonalarini to‘liq qayta xatlovdan o‘tkazish, tadbirkorlarga sanoat va xizmat ko‘rsatish yo‘nalishidagi loyihalari, tashabbuslari va g‘oyalari amalga oshirilishida ko‘maklashish, biznes-inkubatorlar faoliyatini jonlantirish kerak.

Yig‘ilishda har ikki masala bo‘yicha senatorlar tomonidan o‘rtaga tashlangan bir qator savollarga Investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri maslahatchisi Abdulla Xashimov, vazirlikning Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarini rivojlantirish boshqarmasi boshlig‘i Shavkat To‘laganov atroflicha javob, qo‘shimcha ma’lumot hamda tushuntirishlar berishdi.

“O‘zbekneftgaz” AJ xalqaro kapital bozorida 850 million dollarlik obligatsiyalarni joylashtirdi

Bu haqda “O‘zbekneftgaz” AJ axborot xizmati xabar berdi.

Unda yozilishicha, O‘zbekiston neft-gaz sanoatidagi yetakchi davlat aksiyadorlik jamiyati xalqaro kapital qarz bozoriga muvaffaqiyatli qaytib, 5 yillik 144A/RegS formatidagi katta nominalli obligatsiyalar chiqardi.Ushbu ahamiyatli bitim kompaniyaning strategik rivojlanish yo‘lidagi navbatdagi muhim bosqich bo‘lib, xalqaro investorlarning “O‘zbekneftgaz” AJ barqaror kredit reytingi va mamlakat moliyaviy bozoriga bo‘lgan ishonchini yanada mustahkamladi.



Obligatsiyalar chiqarilishi Buyuk Britaniya, AQSH, Yevropa, Shveysariya, Osiyo davlatlarining “Fund Managers”, “Banks & Private Banks”, “Pension & Insurance” kabi yuqori reytingli, yirik xalqaro kompaniyalar investorlari tomonidan katta qiziqish bilan qarshi olinib, 1,9 milliard AQSH dollariga teng buyurtmalar jalb etildi. Bu esa kompaniyaga obligatsiyalar narxini 37,5–50 bazis punktigacha kamaytirish va emissiya hajmini avvalgi rejadan oshib, 850 million dollargacha ko‘tarish imkonini berdi. Mazkur bitim O‘zbekiston tarixida yagona transh shaklida amalga oshirilgan eng yirik obligatsiya emissiyasi bo‘ldi. Avvalgi rekord ham “O‘zbekneftgaz” AJ tomonidan 2021-yilda o‘rnatilgan edi. Kompaniya obligatsiyalari London fond birjasining Xalqaro qimmatli qog‘ozlar bozorida ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

Bu muvaffaqiyat xalqaro investorlarning “O‘zbekneftgaz” AJning bozordagi o‘rni va energetika sohasidagi yetakchiligiga bo‘lgan yuksak ishonchini yana bir bor tasdiqlaydi.

Bitim “J.P. Morgan”, “Abu Dhabi Commercial Bank”, “Deutsche Bank”, “MUFG va Standard Chartered Bank” kabi yetakchi moliyaviy institutlarning Bookrunner hamda “O‘zsanoatqurilishbank”ning Co-manager sifatidagi hamkorligi asosida amalga oshirildi. Bu tarixiy voqea “O‘zbekneftgaz” AJning xalqaro moliya bozoridagi nufuzini yanada mustahkamlab, uning taraqqiyoti yo‘lida yangi bosqichni boshlab berdi.

Zamira Tojiyeva.

Markaziy Osiyoda ilk bor “M360 GSMA Eurasia 2025” forumi o‘tkazildi

O‘zbekiston mezbonlik qilgan ushbu forumda 500 dan ortiq ishtirokchi, 40 dan ziyod yetakchi spiker, 200 dan ko‘p xalqaro axborot texnologiyalari bo‘yicha kompaniyalar vakillari ishtirok etishdi.



Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, GSMA bu jamiyatda va biznes olamida ijobiy o‘zgarishlarga omil bo‘luvchi innovatsiyalarni tatbiq etish va rivojlantirish hamda o‘rganish uchun mobil ekotizimni birlashtiruvchi global tashkilot hisoblanadi. Uning faoliyati ijtimoiy muammolarni hal qilishga yordam beradigan, mobil sohaning ishlashini ta’minlaydigan texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash, mobil ekotizimni MWC va M360 turkumidagi tadbirlarda birlashtirish uchun dunyodagi eng yirik platformani taqdim etishni o‘z ichiga oladi.

Forum GSMA va Raqamli texnologiyalar vazirligi hamkorligida, “Beeline Uzbekistan” va VEON kompaniyalari homiyligida tashkillashtirildi. Undan ko‘zlangan maqsad O‘zbekistonda raqamli texnologiyalarni ilgari surish, mamlakatni mintaqaviy “IT-HUB”ga aylantirish, raqamli bozorning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish hamda xorijiy sarmoyalarni jalb etish masalalarini muhokama qilishga qaratildi. Forumning ochilish marosimida Raqamli texnologiyalar vaziri Sherzod Shermatov, GSMA bosh direktori Vivek Badrinath, VEON kompaniyasi bosh direktori Kaan Terziog‘lu so‘zga chiqib, sun’iy intellekt va 5G texnologiyalarini joriy etish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish hamda mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish zarurligini ta’kidlashdi. Ularning e’tiroficha, mazkur tadbir nafaqat O‘zbekistonda, balki Markaziy Osiyoda raqamli transformatsiyani rivojlantirish yo‘lidagi muhim qadam bo‘lib, mintaqadagi innovatsiyalar va hamkorlikni rivojlantirish uchun o‘ziga xos platforma bo‘lib xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalar vaziri Sherzod Shermatov O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni shakllantirish, raqamli xizmatlar sifatini oshirish va milliy axborot texnologiyalar salohiyatini oshirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida ma’lumot berdi. Shu bilan birga, mamlakatning raqamli infratuzilmasini rivojlantirishda xalqaro hamkorlik, xususan GSMA kabi global tashkilotlar bilan hamkorlik muhim ahamiyat kasb etishini alohida ta’kidladi. Uning urg‘ulashicha, forum nafaqat O‘zbekiston raqamli salohiyatining dunyoga ko‘rsatilishi, balki mintaqa miqyosida yangi texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha aniq tashabbus va rejalarga ham asos solinishi uchun ham qulay fursatdir.

GSMA bosh direktori Vivek Badrinath O‘zbekistonning raqamli sohadagi so‘nggi yillardagi taraqqiyotini yuqori baholadi va mamlakatning mintaqa miqyosida “IT-HUB” ga aylanish salohiyati mavjudligini aytib o‘tdi. U shuningdek, GSMA tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi mumkin bo‘lgan ustuvor yo‘nalishlar, jumladan mobil aloqa orqali inklyuziyani oshirish, raqamli savodxonlikni kengaytirish, kiberxavfsizlikni mustahkamlash bo‘yicha tashabbuslarni taqdim etdi.

Forum arafasida “Mobile Economy Eurasia” kompaniyasi tomonidan chop etilgan hisobotda keltirilgan tahlillarga e’tibor qaratildi. Hisobotga ko‘ra, 2024-yilda YevroOsiyo mintaqasi aholisining uchdan ikki qismi mobil internetdan foydalangan.



Shunday bo‘lishiga qaramay, zamonaviy texnlogiyalarni qo‘llashda kamchiliklar saqlanmoqda, kerakli aloqa mavjud bo‘lsa-da, mobil internetdan foydalanmayotgan aholi soni ko‘pchilikni tashkil etmoqda. Tadbir davomida ushbu masala muhokama qilinib, mobil texnologiyalardan foydalanishning yangi usullari o‘rganildi, sun’iy intellekt evolyutsiyasi, mintaqaviy raqamli transformatsiya va keyingi avlod tarmoqlari kabi mavzular atrofida fikr almashildi.

Bundan tashqari, aloqa sohasidagi hududiy hamdo‘stlik tashkilotining aloqa ma’muriyatlari rahbarlari kengashi va ushbu tashkilot qoshidagi MDHga a’zo davlatlar axborotlashtirish bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi kengashining navbatdagi yig‘ilishlari o‘tkazildi. Unda aloqa ma’muriyatlari rahbarlari kengashi raisi va uning o‘rinbosarlarini tayinlash, tashkilotga a’zo-davlatlar IT parklarini birgalikda rivojlantirish bo‘yicha hamkorlik qilish, rouming aloqa xizmatlari uchun adolatli narxlarni shakllantirish, past orbitali kosmik aloqa tizimlarini rivojlantirish, ulardan foydalanishga ko‘maklashish kabi masalalar ko‘rib chiqildi. Mazkur tadbir orqali raqamli texnologiyalarni rivojlantirish hamda sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish sohasida xorijiy mutaxassislar va ekspertlar o‘rtasida tajriba almashildi. Sun’iy intellekt, kiberxavfsizlik va raqamli infratuzilma sohalaridagi eng so‘nggi innovatsiyalar muhokama qilindi.

Forum doirasida bo‘lib o‘tgan boshqa muloqotlarda GSMA va O‘zbekiston o‘rtasidagi strategik aloqalarni yanada kengaytirish, qo‘shma loyihalarni amalga oshirish, O‘zbekiston mobil operatorlari va startaplari uchun xalqaro sheriklik eshiklarini ochish masalalari yuzasidan kelishib olindi. Ikki tomonlama tajriba almashish, kadrlar malakasini oshirish dasturlari, global sanoat standartlarini joriy etish borasidagi amaliy qadamlar muhokama qilindi.

Barcha muhokamalar va uchrashuvlar yakunida raqamlashtirish jarayonini tezlashtirish hamda telekommunikatsiya hamda axborot texnologiyalari sohasida xalqaro kelishuvlarga erishildi. Ushbu sohalarga investitsiyalarni jalb qilishga ko‘maklashadigan strategik hamkorlik bitimlari tuzildi.






Birjada AI Chat-bot xizmati ishga tushdi

Biznes jarayonlarini optimallashtirish va ish samaradorligini oshirish maqsadida O‘zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasida sun’iy intellekt xizmatlarini joriy etish boshlandi.

Xususan, birjaning elektron davlat xaridlari tizimida mijozlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida sun’iy intellektga asoslangan zamonaviy yechim bo‘lgan AI Chat-bot xizmati ishga tushirildi. Endilikda xarid.uzex.uz platformasida avtorizatsiyadan o‘tgan foydalanuvchilar real vaqt rejimida, birjaning Call-markaziga murojaat qilmasdan, o‘zlarining so‘rovlariga tezkor javoblar va texnik ko‘mak olishlari mumkin. Raqamli yordamchi qonunchilik, tender o‘tkazish tartibi, hujjatlarni rasmiylashtirish, savdolarda ishtirok etish va davlat xaridlariga oid boshqa masalalar bo‘yicha tezkor maslahat va tavsiyalar beradi. Mazkur texnologiyaning joriy etilishi mijozlarni qo‘llab-quvvatlashni yaxshilaydi, tizim bilan o‘zaro aloqa jarayonini soddalashtiradi va savdo operatsiyalarini bajarishda xatolarga yo‘l qo‘yish ehtimolini kamaytiradi.

Kelgusida AI Chat-bot funksiyalarini kengaytirish, sun’iy intellektning yangi xizmatlaridan foydalanish, ularni birjaning boshqa elektron savdo platformalariga integratsiya qilish rejalashtirilgan.



В СНГ планируется развитие межгосударственного горного туристического маршрута

Как сообщается на telegram-канале Межпарламентской Ассамблеи СНГ, Заместитель генерального директора по международным связям и туризму горного курорта «Роза Хутор», представитель Евразийского Альянса горных курортов Сергей Хворостяный рассказал на круглом столе, посвященном экологическому туризму, о развитии туристического бизнеса при ответственном отношении к природе. Мероприятие прошло в рамках XI Невского международного экологического конгресса.



Евразийский Альянс горных курортов объединяет лидеров туристической индустрии: «Роза Хутор» (Россия), «Амирсой» (Узбекистан), «Шахдаг» (Азербайджан), «Ойкарага» и «Шимбулак» (Казахстан), «Мона-Ён-Пьён» (Южная Корея). Ассоциированным членом является Фонд поддержки развития туризма Кыргызской Республики.

Сегодня 27 мая на полях заседания Совета по туризму государств – участников СНГ состоится первое заседание Совета экспертов по устойчивому развитию Евразийского Альянса горных курортов. Среди задач, стоящих перед Советом, — развитие межгосударственного горного туристического маршрута, рассказал Сергей Хворостяный.

«Каждый из наших курортов находится в уникальной природной территории, и мы хотим развивать туризм между нашими курортами с соблюдением всех законов по развитию туризма на особо охраняемых природных территориях», — заметил Сергей Хворостяный.

Кроме того, Альянс планирует выступить с законодательными инициативами по созданию модельных законов в рамках СНГ для установления единых стандартов качества туристических услуг. «Мы хотим, чтобы турист, приезжая из любой нашей страны в другую страну, четко понимал, какой уровень сервиса он получит, на каких трассах он будет кататься и как будет обеспечена его безопасность», - отметил представитель «Роза Хутор».



Россия поможет рассчитать водный баланс Узбекистана на 30-50 лет

По словам главы Федерального агентства водных ресурсов Дмитрия Кириллова, для решения водных проблем Аральского моря нужен не только профессиональный, но и политический консенсус.

Как сообщает ИТАР ТАСС, эксперты Федерального агентства водных ресурсов Российской Федерации помогут Узбекистану рассчитать на 30-50 лет вперед объем запасов пресной воды с учетом таяния ледников. Об этом заявил глава ведомства Дмитрий Кириллов на XI Невском международном экологическом конгрессе.

"У нас выстраивается конструктивный экспертный диалог с Узбекистаном, где наши эксперты вырабатывают совместные решения по изменению водного баланса, расчета перспективного водного баланса республики с учетом таяния ледников. На какой-то краткосрочный период водный баланс повысится за счет таяния, но в горизонте 30-50 лет страна должна понимать, что у нее будет с водой. Слава богу, Узбекистан серьезно к этому относится, эксперты работают", - сказал Кириллов.

Он также отметил, что для решения водных проблем Аральского моря нужен не только профессиональный, но и политический консенсус. Для его поиска можно успешно использовать площадку Невского международного экологического конгресса.

В Узбекистане будет создан Центрально-Азиатский исследовательский центр экологии и окружающей среды

В Министерстве экологии, охраны окружающей среды и изменения климата состоялась встреча министра Азиза Абдухакимова с вице-президентом Академии наук Китайской Народной Республики профессором Хэ Хунпином.



В рамках переговоров стороны обсудили ключевые направления двустороннего взаимодействия в области экологии, охраны окружающей среды и устойчивого развития.

В ходе встречи особое внимание было уделено реализации договорённостей, достигнутых в рамках Межправительственного соглашения о сотрудничестве в сфере охраны окружающей среды, подписанного в январе 2024 года. Подчёркивалась значимость устойчивого партнёрства и расширения совместных научных и практических инициатив. Среди них — проекты по созданию садов галофитных растений в Арнасайском, Карманинском, Мубарекском, Каракульском и Нукусском районах, передача Агентству лесного хозяйства Узбекистана 1,4 тонны семян, а также внедрение цифровых систем мониторинга загрязнений и участие китайских специалистов в реализации общенациональной инициативы «Яшил макон».

Завершением переговоров стало подписание Меморандума о взаимопонимании между Министерством экологии, охраны окружающей среды и изменения климата Республики Узбекистан и Синьцзянским институтом экологии и географии Китайской академии наук (CAS XIEG). Документ подписали Азиз Абдухакимов и генеральный директор CAS XIEG профессор Чжан Юаньмин.

Согласно меморандуму, стороны договорились о создании Центральноазиатского исследовательского центра экологии и окружающей среды (Tashkent Headquarter) на базе Центрально-Азиатского университета изучения окружающей среды и изменения климата «Green University». Центр станет платформой для совместных научных исследований, подготовки специалистов, обмена технологиями и практиками, а также продвижения «зелёного» и устойчивого развития в регионе Центральной Азии.

Документ предусматривает реализацию широкого спектра направлений сотрудничества: проведение научных конференций и семинаров, совместные разработки и публикации, оснащение лабораторий современным оборудованием, реализация прикладных проектов и развитие кадрового потенциала.

Подписание меморандума стало важным шагом в углублении экологического взаимодействия между Узбекистаном и Китаем, направленным на эффективное противодействие глобальным климатическим вызовам и укрепление регионального сотрудничества.



O‘zbekistonda maxsus ro‘yxatdan o‘tgan QQS to‘lovchilar haqida ma'lumot

2025-yil 1-may holatiga maxsus ro‘yxatdan o‘tgan QQS to‘lovchilar soni 226 240 tani tashkil etdi. Bu 2024-yilning 1-mayiga nisbatan 18% ko‘p.


Eng ko‘p QQS to‘lovchilar quyidagi sohalarda:

- savdo – 76,9 ming;
- qishloq xo‘jaligi – 47,8 ming;
- sanoat – 27,2 ming.


QQS to'lovchilarining yuqori o'sish sur'atlari quyidagi sohalarda kuzatilmoqda:

- xizmat ko'rsatish – 68,3%;
- transport – 20,4%;
- axborot va aloqa – 13,2%.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha maxsus ro‘yhatdan o‘tgan soliq to‘lovchilar dinamikasi



Sohalar kesimida QQS to‘lovshilar soni dinamikasi



HUDUDLAR KESIMIDA			
HUDUD NOMI	01.05.2025-YIL	01.05.2024-YIL	O‘SISHI
Qoraqalpog‘iston R.	10 980	9 820	11,8%
Andijon v.	14 116	12 405	13,8%
Buxoro v.	15 298	13 065	17,1%
Jizzax v.	8 568	7 838	9,3%
Qashqadaryo v.	19 013	17 014	11,7%
Navoiy v.	7 516	6 424	17%
Namangan v.	12 135	10 361	17,1%
Samarqand v.	17 188	14 889	15,4%
Surxondaryo v.	11 467	9 761	17,5%
Sirdaryo v.	7 162	6 264	14,3%
Toshkent v.	20 886	17 118	22%
Farg‘ona v.	17 462	14 654	19,2%
Xorazm v.	10 389	8 664	19,9%
Toshkent sh.	54 060	43 461	24,4%

Таъсисчи

Давлат активларини бошқариш агентлиги

“Бизнес-Daily Медиа”
ноширлик уйи МЧЖ

Бош директор в.в.б. Бош муҳаррир
У. ПУЛАТОВ

Мурожаат учун

Тел.:
+998 (99) 353-55-54

E-mail:
biznesdm 2020@gmail.com

Манзил:
100000, Тошкент шаҳри, Амир Темур кўчаси, 6-уй.

Газета 1994 йил 31 августдан чиқа бошлаган.

2013 йил 12 апрелда Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлигида 0064-сон билан қайта рўйхатдан ўтган.

2025 йилдан бошлаб газета PDF электрон шаклда чиқади. Нашр даврийлиги: ҳафтада икки марта – ҳар сешанба ва пайшанба кунлари. Формат А3 (816x406)

© Biznes Daily “Биржа”дан кўчириб босиш фақат

“Бизнес-Daily Медиа” НУ МЧЖ рухсати билан амалга оширилади.

Газета жамият матбаа бўлимида терилди ва саҳифаланди.

© Biznes Daily “Биржа” оригинал макети.

Газета текин тарқатилади

telegram
BIZNES DAILY BIRJA